

## 128. Hajmli shakllar

shar, kub, piramida,  
konus, silindr,  
kuboid (to'g'ri burchakli  
parallelepiped),  
prizma



	8	2	13
2			15
	5		17

15 19 11



1. Shakllarni ikki guruhga bo'ling. Ularni qanday xossaga asoslanib guruhlarga bo'lish mumkin?




2. Hajmli shakllarga qarang. Tevarak atrofingizdagi narsalar orasidan bu shakllarga o'xshash narsalarni toping.

Silindr	Shar	Kub	Piramida
Konus	Kuboid (to'g'ri burchakli parallelepiped)		Prizma




3. Bu shakllarga turli tomonlardan qaraganingizda nimani ko'rayotganingizni tasvirlang.



4. O'quvchilar hajmli naqsh yasash uchun 28 ta shakl tayyorladilar, ulardan 14 tasi shar, 3 tasi kub, qolganlari piramida. O'quvchilar nechta piramida tayyorladilar?

28 sh.



5. Simdan tomoni 3 dm bo'lgan kvadrat yasaldi. Keyin sim to'g'rilanib, undan teng tomonli uchburchak yasaldi. Uchburchak tomonlari uzunligi qanday?

